



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

### VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINING MILLIY -MA'NAVIY HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Ro'zimatova Ruxsorabonu

*Urganch tumani 2-sonli texnikumning tarix fani o'qituvchisi,*

**Ibragimov Zafar**

*Urganch tumani 2-sonli texnikumning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy va ma'naviy hayotdagi o'rni hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Vatanparvarlikning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi roli ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik, ma'naviyat, ijtimoiy ong, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi.

Har bir jamiyatning barqaror rivoji, avvalo, uning fuqarolarida vatanparvarlik tuyg'usining qay darajada shakllanganiga bog'liq. Vatanparvarlik – bu insonning o'z Vatani, xalqi, tili, madaniyati va tarixiga bo'lgan sadoqati, hurmati va mas'uliyatli munosabatidir.

U nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida yosh avlodni yuksak ma'naviyat, sog'lom ijtimoiy ong va mustahkam fuqarolik pozitsiyasi asosida tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan.

Shu jarayonda vatanparvarlik tushunchasi asosiy tarbiyaviy ustunlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki inson qalbida vatan, xalq, millat degan tushunchalar uyg'unlikda shakllanmasa, u shaxs to'laqonli fuqarolik burchini his etmasligi mumkin. Vatanparvarlik – bu faqat bir tuyg'u emas, balki o'z yurti, xalqi va davlatiga sadoqatli bo'lish, uning yutuqlaridan faxrlanish, taraqqiyotiga hissa qo'shishga intilishdir. U o'z ichiga badiiy-estetik didni, axloqiy fazilatlarni, tarixiy xotirani va milliy o'zlikni anglashni ham oladi.

O'z navbatida, vatanparvarlik o'z Vatanga muhabbat, uning ravnaqi va farovonligi uchun g'amxo'rlik, o'z ona yurtining xarakteri va milliy madaniy xususiyatlarini saqlab qolishga intilishda namoyon bo'ladigan axloqiy-siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg'udir. Vatanparvarlik ramziy shaklda ifodalangan mamlakat va davlatga nisbatan hissiy-psixologik munosabat bilan tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23-son qarorida "Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llabquvvatlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari - "Prezident maktablari", "Temurbeklar maktabi", "Ijod maktablari" bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda" deya ta'kidlangan. Qolaversa, vatanparvarlik tabiatan chuqur ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayotining ma'lum bir jihatigina emas, balki uning mavjudligi va rivojlanishining manbai bo'lib, jamiyatning hayotiyligi, ba'zan esa omon qolish qobiliyatining atributi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko'laml va shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-2024-yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini bevosita qo'llab-quvvatlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan 64 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur huquqiy va institutsional baza yaratildi. Bu borada Prezidentimiz, jumladan: "Fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish e'tiborimiz markazida bo'ladi" deb alohida e'tirof etdilar. Yangi O'zbekiston va fuqarolik jamiyati: konstitutsiyaviy-huquqiy va tashkiliy asoslari Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir qator samarali aniq quyidagi ishlar amalga oshirildi. Birinchidan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritilib, uning XIII bobi "Fuqarolik jamiyati institutlari", deb nomlandi. Jumladan 69-moddada "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi" deb mustahkamlab qo'yildi. Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada milliy qonunchiligimizda birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlarining tarkibi ochib berildi. Ushbu institutlar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlandi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining boshqa boblarning 5 ta moddasida fuqarolik jamiyati institutlarini manfaatlari himoya qilingan. Ikkinchidan, O'zbekiston tarixida ilk marotaba 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari etib: fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish tamoyillari belgilandi.

Shu bilan birga, vatanparvarlikning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri davlatchilik tamoyili bo'lib, u jamiyatlarning tarixiy rivojlanishining muhim omili davlatning nisbatan mustaqil, o'zini-o'zi ta'minlovchi, avtonom ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo'lishida ifodalanadi. Vatanparvarlik tushunchasi qadimdan insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu tushuncha jamiyatning ma'naviy-axloqiy tamoyillari bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson shaxsining shakllanishi va kamolotida muhim rol o'ynaydi. Vatanparvarlik - bu inson qalbining eng ezgu tuyg'ularidan biri bo'lib, Vatan oldidagi burchni, uni himoya qilish, ardoqlash, rivojlantirish istagini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, vatanparvarlik jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan, vatanparvarlik tuyg'ulari, g'oyalari, vatanparvarlik tuyg'ularining butun majmuasini qamrab



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

oluvchi eng muhim, abadiy qadriyatlardan biri bo'lib, e'tiqodlari, milliy an'ana va urf-odatlaridir. Shaxsning eng muhim ma'naviy merosi va ijtimoiy qadriyati sifatida uning fuqarolik yetukligini tavsiflaydi va uning farovonligi yo'lida faol o'zini o'zi anglashda namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik o'z vataniga muhabbat, uning tarixi, milliy madaniyati, yutuq va muammolari bilan uzviylikni ifodalaydi. U jamiyat taraqqiyotining omillaridan biri, uning hayotiylik atributlaridan biri bo'lib xizmat qiladi, turli ijtimoiy, milliy, diniy va boshqa vatandoshlar guruhlarini birlashtirishni ta'minlaydi, bu ayniqsa tashqi tahdid yoki tahdidlar oldida yaqqol namoyon bo'ladi. Demak, vatanparvarlik ma'naviy-axloqiy ma'noda yaqqol va yuksak ma'naviy qadriyat tuyg'usidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-son qarori.
2. Pedagogikaning nazariy asoslari: ma'ruzalar kursi / tahr. O. Vishnevskiy - Drogobych: Uyg'onish, 2001. – 268 b.
3. Kolesnikova E. Yu., Lubskiy A. V. Yoshlar muhitida vatanparvarlik va fuqarolik: sotsiologik tadqiqotlar paradigmatlari // Gumanitar 2018. V. 7. 5-son. 174- 183 b.. DOI 10.23683/2227- 8656.2018.5.14
4. I.I.Axtamov. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. Tafakkur manzili. 2024/5/22
5. Karalash N., 2012, 90-95-betlar
6. Ageev A., 1991, 24-32-betlar
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/vatanparvarlik-tarbiyasi-tushunchasi-va-ahamiyati>